

AKUSHERLIK XIZMATLARINI KO'RSATISHDA NOHALOLLIK VA KORRUPSIYA XAVFLARI



"Aksilkorrupsiya laboratoriyasi" loyihasi
Toshkent, 2023-2024



KIRISH




Mazkur tadqiqot orqali akusherlik tibbiy yordamini ko'rsatishda (bola tug'ilishi jarayoniga alohida e'tibor qaratgan holda) korrupsiya muammolari va ularning sabablarini aniqlashga harakat qilindi. Tadqiqot quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ❖ akusherlik xozmatlarini ko'rsatish bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazaning qisqacha tahlili (**1-bob**), ya'ni bunday xizmatlar uchun mas'ul bo'lgan sog'liqni saqlash muassasalari, aholining tibbiy xizmatlarga bo'lgan huquqlari, tizimni moliyalashtirish va xizmat ko'rsatish standartlari;
- ❖ intervular, ijtimoiy so'rovlari va fokus-guruh suhbatlari asosida akusherlik yordamini amalda ko'rsatadigan tibbiyot xodimlarining kasbdagi nohalollik muammolari tahlili.

Intervular Sog'liqni saqlash vazirligi, hududiy sog'liqni saqlash boshqarmalari, tug'ruq tizimidagi tibbiyot muassasalarining

rahbar xodimlari bilan o'tkazildi. Fokus-guruh suhbatlari va anketa so'rovlari esa tibbiyot xodimlari, shifokorlar, hamshiralalar, tug'ruqdagi ayollar va ularning qarindoshlari o'rtaida tashkil etildi, natijalar asosida ma'lumotlar to'plandi (**2-bob**). Ushbu ma'lumotlar aniqlangan muammolarni me'yoriy-huquqiy bazaning zaif tomonlari bilan bog'laydigan va ushbu jihatlarni bartaraf etish uchun tavsiya etilgan chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan Xavflar reestri shaklida taqdim etiladi.

O'zbekistonda 2019-yilda sog'liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish jarayoni boshlandi, Prezidentning "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi 5590-son Farmoniga 2019-2025-yillarda O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiysi kiritilgan edi¹. Yillar mobaynida akusherlik (ayniqsa, tug'ruq) xizmatlari uchun norasmiy to'lovlar tizimli ekanligi haqida ma'lum darajada konsens bo'lgan. Tug'ruqdagi korrupsiya holati Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil qilgan tanlov g'olibii ijtimoiy tarmoqda qoldirgan postida²



¹ <https://lex.uz/ru/docs/4096199#4099858>

² https://m.facebook.com/story.php?story_fbid=1638413879596889&id=100002848799079

yorqin tasvirlagan. Ushbu postda jurnalist turmush o'rtog'i o'g'lini dunyoga keltirgan tug'ruqxonada va FHDYo bo'limida bir nechta norasmiy to'lovlarga duch kelgani haqida bayon qiladi.

Konsepsiya ko'zda tutilgan islohot bosqichlari zamonaviy moliyalashtirish tizimiga o'tishni, bunda majburiy tibbiy sug'urtaga va xarajatlarga asoslangan, tibbiy xizmat ko'rsatishning real narxiga bog'langan hamda korrupsiyaning oldini olishga katta ta'sir ko'rsatadigan boshqa ko'plab qadamlarni tashlashni ko'zda tutadi.

Konsepsiyanı amalga oshirish bo'yicha ba'zi ishlar, jumladan, ayrim hududlarda tibbiy sug'urtani sinovdan o'tkazish boshlangan bo'lsa-da, uning natijalari yetarlicha hujjatlashtirilmagan va ayrim chora-tadbirlar (masalan, Tibbiyot xodimlarining odob-axloq kodeksi) to'g'ri yo'lga qo'yilmagan.

Yechimini kutayotgan muhim muammolar mavjud, jumladan:

- ◆ tug'ruq paytida amalda nafaqat minnatdorchilik, balki bemorlarning qonuniy huquqqa ega bo'lgan xizmatlarni olish uchun, ma'lum ma'noda, majburiyga aylangan norasmiy to'lovnini tashkil etuvchi "suyunchi" urfining keng qabul qilinganligi;
- ◆ yaxlit bo'limgan va ba'zan bir-biriga zid bo'lgan huquqiy va me'yoriy baza (masalan, tug'ish bo'yicha bepul xizmatlardan foydalanish huquqi shifokorlarga bemorlarni yetishmayotgan dori-darmonlarni sotib olishga yuborishga ruxsat beruvchi buyruqqa ziddir);
- ◆ eskirgan va muayyan sog'lijni saqlash muassasalarini ehtiyojlarini ishonchli tarzda qondira olmaydigan moliyalashtirish tizimi;

◆ tibbiyot xodimlarining yetarli darajada bo'limgan kasbiy malakasi, axloqiy me'yorlarning yo'qligi va klinik standartlardan xabardor emaslik ehtimoli;

◆ bemorlarni o'z huquqlari to'g'risida yetarli darajada xabardor qilmaslik.

Ushbu hisobotning asosiy tavsiyalari:

O'zbekiston Respublikasining 2019–2025-yillarda Sog'lijni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasini to'g'ri tatbiq qilish, xususan:

- ◆ huquqiy bazani unifikatsiya qilish;
- ◆ moliyalashtirish tizimini isloh qilish (shu jumladan, asl majburiy tibbiy sug'urta tizimini joriy etish);
- ◆ Tibbiyot xodimlarining odob-axloq kodeksi va uni hayotga tatbiq etish mexanizmlarini joriy qilish.

Shu bilan bir qatorda:

- ◆ sog'lijni saqlash vazirligi tomonidan tibbiyot muassasalarida bepul xizmatlar ko'rsatish va bemorlarga ularning huquqlari to'g'risida xabardor qilish majburiyatlariga riosa etilishini nazorat qilish/tekshirish;
- ◆ tibbiyot xodimlarining ish haqini qayta ko'rib chiqish va adolatli ish haqi stavkalarini joriy etish;
- ◆ hukumatning shifokorlarga bemorlarni davlat tomonidan kafolatlangan dori vositalarini sotib olishga yuborishga ruxsat beruvchi farmoyishini bekor qilish.

MINNATDORLIK

O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimining akusherlik amaliyotida halollik omillarini baholash bo'yicha hisobot "Yuksalish" harakati va O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Sloveniyaning "Mintaqaviy muloqot" (Regional Dialogue) xalqaro nohukumat tashkiloti ekspertlari bilan hamkorlikda hamda AQSh Davlat departamentining Xalqaro narkotik moddalar va huquqni muhofaza qilish masalalari byurosi (INL) moliyaviy ko'magida tayyorlandi.

Tadqiqot mualliflari: **Marat Rahimov** (milliy maslahatchi), **Lyudmila Stayshyunayte** ("Aksilkorrupsiya laboratoriyasi" loyihasi menejeri) va **Shoxruh Haqqulov** ("Aksilkorrupsiya laboratoriyasi" loyihasi koordinatori).

Hisobot mazmunan "Mintaqaviy muloqot" tashkiloti jamoasi ekspertlari **Kventin Rid** va **Darya Zemeseva** tomonidan tahrirlangan.

**Mualliflar tadqiqotni tayyorlashda
ko'rsatgan yordami uchun quyidagi
shaxslarga minnatdorlik bildiradi:**

Akmal Burxanov

(Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori)

Bobur Bekmurodov

("Yuksalish" harakati raisi)

Sherzod Saparov

(Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi matbuot kotibi)

Husainjon Bo'riyev

(Sog'liqni saqlash vazirligi Onalik va bolalikni muhofaza qilish boshqarmasi bosh mutaxassis)

Shamshod Yunusov

("Yuksalish" harakatining Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo'limi boshlig'i)

Petra Gorjup

("Mintaqaviy muloqot" tashkilotining O'zbekistondagi filiali rahbari)



Goran Klementchich

("Mintaqaviy muloqot" tashkilotining huquqiy masalalar eksperti, Sloveniya)

Malika Ahmadova

("Aksilkorrupsiya laboratoriyasi" loyihasi assistenti)

Andrey Sgurskiy

(dizayner)

Munisa Aliyeva

("Yuksalish" harakati matbuot kotibi)

Baxodir Ergashev

(tarjimon)

Mualliflar, shuningdek, "Yuksalish" harakatining Toshkent, Sirdaryo, Farg'ona, Qashqadaryo, Navoiy viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy bo'limmlariga tadqiqotni o'tkazishdag'i ko'maklari uchun alohida minnatdorlik bildiradi.

MUNDARIJA

-
- 07 "Aksilkorrupsiya laboratoriyasi" loyihasi
-
- 08 Tadqiqot metodologiyasi
-
- 09 1-bob. Akusherlik xizmatlarini ko'rsatishda huquqiy va me'yoriy baza
-
- 09 Akusherlik xizmatlarini ko'rsatuvchilar
-
- 11 Akusherlik xizmatlarini moliyalashtirish
-
- 18 Davolash standartlari
-
- 20 Nazorat
-
- 21 2-bob. Akusherlik xizmatlarini ko'rsatishda bemorlar bilan munosabatlardagi muammolar, ularning sabablari va tavsiyalar
-
- 26 Illova. Davlat idoralarining shaffofligi va tezkorligi
-
- 28 Foydalaniilgan adabiyotlar ro'yxati

ANTI-CORRUPTION LAB

"AKSILKORRUPSIYA LABORATORIYASI" LOYIHASI

2020-yilda tashkil etilgan "Aksilkorruptsiya laboratoriysi" loyihasi uchta tashkilotning doimiy hamkorligida faoliyat yuritadi. Bular: "Yuksalish" harakati – asosiy ijrochi sifatida, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi – ma'lumotlar so'rovi hajmini aniqlashda va ma'lumotlarni to'plashga tayyoragarlikda qo'llab-quvvatlaydi, "Mintaqaviy muloqot" XNT – ekspert maslahatlari bilan ta'minlaydi va korruptsiya xavflarini baholash sohasida ilg'or jahon amaliyotini joriy etishda ko'maklashadi.

Asosiy maqsad va vazifalar:

- ❖ Ijtimoiy muhim masalalar bo'yicha korruptsiya xavflarini baholash uchun tadqiqot metodologiyasi va ilg'or amaliyotni yaratish;
- ❖ Korruptsiya xavfi omillarini yoki halollikka tahdidlarni aniqlash;
- ❖ Tayyor ma'lumotlar asosidagi tadqiqot va so'rov natijalarini birlashtirib, halollikka tahdidni aniqlash;

- ❖ Aniqlangan muammolarni hal qilish bo'yicha amaliy (siyosiy) tavsiyalar taqdim etish;
- ❖ Fuqarolar va davlat organlarining korruptsiya xavflari va halollikka tahdidlari, ularning sabablari, ularni kamaytirish yo'llari haqida xabardorligini oshirish;
- ❖ Fuqarolik jamiyati institutlari va faollarini korrupsiyaga qarshi kurashishga jalb etish.



TADQIQOT METODOLOGIYASI



Tadqiqot quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oldi:

- ❖ Tadqiqot metodologiyasini ishlab chiqish;
- ❖ Ma'lumotlarni to'plash;
- ❖ Ma'lumotlarni tahlil qilish;
- ❖ Xulosalar va tavsiyalarni shakllantirish;
- ❖ Yakuniy hisobotni tayyorlash.

Ma'lumotlar yig'ish jarayoni ikki asosiy bosqichga ajratildi:

01 tayyor ma'lumotlar asosidagi tadqiqot akusherlik xizmatining huquqiy asoslari, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan materiallar, xalqaro tajriba, statistik ma'lumotlar tahlilini o'z ichiga oldi;

02 sayyor tadqiqotda birlamchi ma'lumotlar jamlandi.

Miqdoriy va sifat ma'lumotlar Google Form orqali o'zbek tilida olib borilgan intervyular, fokus-guruuh muhokamalari (FGD) va so'rovnomalar orqali to'plandi.

QAMROV VA SO'ROV



Tadqiqot O'zbekistonning **7 hududidagi** (Toshkent shahri hamda Toshkent, Sirdaryo, Farg'onha, Qashqadaryo, Navoiy viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi) **21 ta tug'ruqxonani** qamrab oldi.

Obyektiv xulosalar olish uchun tadqiqot doirasida so'rovlar o'tkazildi. Unda to'qqiz toifadagi respondentlar ishtirok etdi:

1	Sog'liqni saqlash vazirligi xodimlari	7	Hududiy sog'liqni saqlash boshqarmalari xodimlari
22	Tug'ruqxona bosh shifokorlari	70	Akusher-ginekologlar
48	Neonatologlar	42	Anesteziologlar – reanimatologlar
39	Terapevtlar	61	Hamshiralari va akusherlar
48	Tug'ruqdagi ayollar	57	Tug'ruqdagi ayollarning qarindoshlari

Jami: **395**

1-BOB. AKUSHERLIK XIZMATLARINI KO'RSATISHDA HUQUQIY VA ME'YORIY BAZA

Akusherlikning huquqiy asoslari haqida so'z ochganda, dastlab shuni ta'kidlash kerakki, sohaga oid birlamchi hujjatlar, ya'ni asosiy qonunchilik hujjatlari, Prezident farmonlari va hukumat qarorlarini onlayn tarzda topish imkonini bor-u, lekin Sog'lqnini saqlash vazirligining me'yoriy hujjatlari (xususan,

buyruqlar)ni topishning imkonini yo'q. "Aksilkorrupsiya laboratoriyasi" loyihasining ish jarayonida vazirlikning tegishli buyruqlari so'rov asosida olindi, biroq hujjatlar elektron shaklda taqdim etilmadi, bu esa Ochiq ma'lumotlar Xartiyasiga zid³.

AKUSHERLIK XIZMATLARINI KO'RSATUVCHILAR

Akusherlik homiladorlik va tug'ruq bo'yicha barcha tibbiy xizmatlarni, ya'ni homiladorlik davridagi profilaktik va tibbiy yordamdan tortib, to tug'ruqdagi ona va bolaning kasalliklarini davolashgacha bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Ushbu tahlilda va o'tkazilgan so'rovlarda asosiy e'tibor – homilador ayollarga,

ayniqsa, tug'ish paytida ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlarga qaratilgan.

Homilador ayollar birinchi marta akusherlarga oilaviy poliklinikada ko'rikdan o'tayotganda duch keladi. Poliklinika shifokori ayolning holatiga qarab uni quyidagi asosiy tuzilmalarga yuborishi mumkin:



I. TUMAN SHIFOXONALARI (1-TUZILMA)

Tuman shifoxonalari homilador ayollarga patologiyasiz (ya'ni asoratsiz homiladorlik uchun) akusherlik xizmatini ko'rsatadi. Shifoxonalar kesarcha kesish kabi jarrohlik amaliyotlarini o'tkazish uchun zarur uskunalar bilan jihozlangan. Amaldagi tartibga ko'ra, ayolning homiladorligi 37 hafta va undan ko'p davrida asoratsiz bo'lsa, tuman shifoxonasiga yuboriladi. Sog'lom yangi tug'ilgan chaqaloqlarni emlash va skrining tekshiruvlari ham

tuman shifoxonasida o'tkaziladi. Agar ayol yoki uning yangi tug'ilgan chaqalog'i yana boshqa mutaxassis yordamiga muhtoj bo'lsa (masalan, asoratlar paydo bo'lganidan keyin) ular yuqori darajadagi tashkilotlarga yuboriladi yoki borish imkonini bo'lmasa, mutaxassislar maslahat berishi uchun chaqiriladi. Tuman shifoxonalarida hayotiga xavf tug'dirmaydigan tug'ma nuqsonlari bo'lgan bolalarga palliativ yordam ham ko'rsatilmoqda.

³O'zbekiston tomonidan Ochiq ma'lumotlar Xartiyasi (ODC) qabul qilinganligi to'g'risidagi xat



II. SHAHAR VA VILOYAT TUG'RUQXONALARI (2-TUZILMA)

Tug'ruqxonalar – bu homiladorlik va murakkab homiladorlik davridagi ayollarga tibbiy yordam ko'rsatadigan ixtisoslashtirilgan tibbiy muassasa. Bu yerga homilador ayollar va homiladorlik paytida ichki organlar funksiyasiga ziyon yetmagan holda sog'lig'ida muammozi bo'lgan ayollar tug'ruq oldidan yo'naltiriladi. Shuningdek, biror patalogiya yoki jarohat bilan tug'ilgan, shoshilinch

jarrohlik amaliyoti talab etilmaydigan, faqat nafas olish terapiyasi yoki qo'shimcha tekshiruvga muhtoj yangi tug'ilgan chaqaloqlar ham tug'ruqxonalarga yo'naltiriladi. Oq'irroq asoratlardan aziyat chekayotgan ayollar yoki yangi tug'ilgan chaqaloqlar yuqori darajadagi tibbiyot muassasalarga yuborilishi mumkin. Buning imkonи bo'lmasa, boshqa muassasalarfan maslahatchilar chaqiriladi.



III. PERINATAL MARKAZLAR (3-TUZILMA)

2000-yilda O'zbekistonda Perinatal markazlar tashkil etildi⁴. Markazlar erta tug'ish, homila bachadonda suv ketishi va homilada tug'ma nuqsonlar rivojlanishi kabi jiddiy muammolari bo'lgan ayollarga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatadi.

Bugun respublikada 14 ta mustaqil va tug'ruqxonalar tarkibida tashkil etilgan 46

ta perinatal markaz bor. Hayot uchun xavfi qator jiddiy asoratlar yoki sharoitlardan aziyat chekayotgan yoki mavjud davolash standartlari yoki protokollari bilan qamrab olinmagan ayollar, shuningdek, muddatidan oldin tug'ilgan yoki jiddiy kasalligi bo'lgan chaqaloqlar ham perinatal markazlariga yo'naltiriladi.



IV. AKUSHERLIK VA GINEKOLOGIYA INSTITUTI (4-TUZILMA)

Shuningdek, homilador ayollarga va patologiyasi bo'lgan bolalarga tibbiy yordam ko'rsatuvchi Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (avvalgi Akusherlik va ginekologiya instituti) ham faoliyat yuritmoqda. Markazda turli reproduktiv salomatlik kasalliklarini o'rGANISH, akusherlik, ginekologiya, pediatriya, tug'ruq, homiladorlikni olib borish va uni rejalashtirishda yordam

berish yo'nalishlarida malakali kadrlar tayyorlanadi. Rasmiy saytidagi ma'lumotda Markaz akusherlik xizmatini ko'rsatuvchi tuzilmalarning to'rtinchi pog'onasi sifatida ko'rsatilgan. Sog'lijni saqlash vazirligining perinatal markazlar tarmog'iga⁵ oid buyruqlarida yuqorida uch bosqichli tuzilmalar qabul qilish tartiblari bilan bayon etilgan, biroq ushbu Markaz qayd etilmagan.

⁴ Vazirlar Mahkamasining 2000-yil, 15-fevraldagи 46-sonli qarori.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirligining 2014-yildagi 185-sonli "O'zbekistonda perinatal yordamni hududiylashtirish to'g'risida"gi buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirligining 2021-yil 28-iyundagi 151-sonli "Maqsadli O'zbekiston Respublikasida perinatal tibbiy yordam yo'nalishi".

BEMORNI YO'NALTIRISH BO'YICHA QARORLAR QABUL QILISH TARTIBI

Tibbiy ko'riklardan keyin homiladorni boshqa ko'riklarga yuborish to'g'risidagi qaror uni davolovchi shifokor tomonidan qabul qilinadi. Agar yo'llanmada

shifoxonaga yotqizish kerakligi aytilgan bolsa, qaror 2-3 shifokordan iborat komissiya tomonidan qabul qilinadi.

BEMORLARNING XABARDORLIGI

Vazirlar Mahkamasining 696-sonli qaroriga ko'ra, tibbiyot tashkilotlari "mijozlarni ish tartibi, tibbiy yordamlar ro'yxati, ushbu yordamni ko'rsatish va olish shart-sharoitlari, vrach-mutaxassislar malakasi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi bepul, tushunarli va ishonchli axborot bilan ta'minlashlari shart" (15-modda). Tibbiyot xodimlari mijozlarga ularning sog'lig'ining holati to'g'risidagi ma'lumotlarni, shu

jumladan, tekshirish natijalari, qanday kasali borligi, qanday tashxis qo'yilganligi, kasallikning bundan buyon qanday kechishiga oid taxminlar, davolash usullari va bu usullar bilan bog'liq xavf-xatar, tibbiy aralashuvning ehtimol tutilgan turlari va ularning oqibatlari, amalga oshirilgan davolashning natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni ham taqdim etishlari shart.

AKUSHERLIK XIZMATLARINI MOLIYALASHTIRISH

O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimi hanuzgacha Sobiq Ittifoq paytida tashkil etilgan tuzilma asosida ishlaydi. O'tgan yillar mobaynida tizimga ko'plab o'zgarishlar kiritilgan, jumladan, Qishloq vrachlik punktlari, Shoshilinch tibbiy

yordam markazlari (ushbu tadqiqotga bevosita daxldor) va perinatal markazlarni tashkil etilgan. 100% davlat tomonidan moliyalashtiriladigan an'anaviy model ham sug'urta va xususiy tibbiyot qo'shilishi bilan rivojlandi.

MOLIYALASHTIRISH MANBALARI

Sog'liqni saqlash sohasi (shu jumladan, akusherlik) to'rtta manbara asoslangan aralash tizim asosida moliyalashtiriladi. Bular:



I. DAVLAT BYUDJETI

O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirishga davlat byudjetining katta qismi ajratiladi.⁶ Bunga infratuzilmani yaxshilash, tibbiy asbob-uskunalar sotib olish, tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish va oylik maoshi, ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish kiradi. Byudjet mablag'lari

tibbiy xizmat ko'rsatiladigan hududdagi bemorlar va aholi soniga qarab taqsimlanadi. Jami moliyalashtirishdagi davlat byudjeti ulushini aniqlash mushkul, ammo bu 90-95%ni tashkil etishini ishonch bilan aytish mumkin.

Davlat byudjetidan moliyalashtirishda muammo shundaki, mablag' ajratish mezonlari va tartibi o'ta byurokratik bo'lib, amaldagi me'yoriy hujjatlarga muvofiq tibbiyot muassasalarining majburiyatlariga (shu jumladan, akusherlik xizmatini ko'rsatishga) ham, ehtiyojlarining qisqa muddatli tebranishlariga ham mos kelmaydi. Muayyan xizmat ta'minotchisi

uchun mablag' Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan koykalar va mahalliy aholi sonidan kelib chiqqan holda ajratiladi. Qo'shimcha quvvatlar zarur bo'lganda (masalan, ma'lum bir yilda koykalar sonini ko'paytirish) kerakli resurslar, shu jumladan jihozlar, xodimlarga ish haqi, transport va boshqalar bilan ta'minlanadi deyishga yetarli kafolatlar yo'q.



II. MAJBURIY TIBBIY SUG'URTA

Prezidentning 2018-yildagi farmoni ⁷ bilan hukumat 2021-yildan boshlab majburiy tibbiy sug'urta mexanizmini joriy etishni nazarda tutgan edi. Biroq normativ hujjat hali tasdiqlanmagan, "Majburiy tibbiy sug'urta to'g'risida"gi qonun 5 yildan beri tayyorlanmoqda. Tizim tajriba sinov tariqasida 2021-yilda Sirdaryo viloyatida ishlay boshladi. 2023-yildan boshlab majburiy tibbiy sug'urta Qoraqalpog'iston, Toshkent, Samarcand, Navoiy, Surxondaryo va Farg'ona viloyatlariда, 2025-yildan esa mamlakatimizning barcha hududlarida joriy etilishi ko'zda tutilgan edi.

Moliyalashtirish Majburiy tibbiy sug'urta milliy jamg'armasi hisobidan amalga oshiriladi; Jamg'arma quyidagilardan shakllantiriladi:

- ◆ asosiy majburiy tibbiy sug'urta bo'yicha davlat byudjetidan olinadigan mablag'lar;
- ◆ tamaki mahsulotlari, alkogol, tarkibida shakar ko'p bo'lgan oziq-ovqatlar, trans yog'lar va boshqa

zararli mahsulotlarga aksiz solig'idan maqsadli chegirmalar;

- ◆ sud qarorlarini ijro etish uchun kompensatsiya to'lovi uchun davlat byudjetidan olinadigan mablag'lar;
- ◆ yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari va sovg'alaridan tushumlar;
- ◆ xayriya fondlari, xalqaro tashkilotlar va chet el fuqarolaridan tushadigan mablag'lar;
- ◆ milliy qonunchilikka zid bo'limgan boshqa daromadlar.

Jamg'arma bo'yicha ba'zi noaniqliklar ham yo'q emas. Masalan, O'zbekiston va chet el fuqarolari o'z daromadlaridan majburiy foizni tibbiy sug'urta jamg'armasiga o'tkazishi, jamg'arma ushbu mablag'larni boshqarishi va tibbiy xizmat ko'rsatuvchilarga to'lov qilishi, yuridik vazifalarini bajarmaganlarga intizomiy jazo chorasi sifatida mablag' berishni to'xtatishi masalalariga aniqlik kiritilmagan.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi tibbiyot tashkilotlariда Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan tibbiy yordam ko'rsatish tartibi to'g'risida"gi 696-son qarori.

⁷ Prezidentning 2018-yil 7-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi 5590-son qarori.

Hozirda jamg'armani tashkil etish yoki tartibga solish bo'yicha qonun ham qabul qilinmagan. Majburiy tibbiy sug'urta

sinovdan o'tkazilgan hududlarda erishilgan natijalar haqida ochiq ma'lumotlar va o'rganishlar yo'q.



III. XUSUSIY MANBALARDAN OLINADIGAN DAROMADLAR

O'zbekistondagi tibbiyot muassasalari davlat tomonidan kafolatlangan moliyaviy qo'llab-quvvatlovdan tashqari, bemorlar sotib oladigan xizmatlardan ham daromad oladi. Qaysi xizmatlar bepul va qaysilar pullik ekanligini belgilaydigan huquqiy bazani quyidagicha umumlashtirish mumkin:

 Prezidentning 1998-yildagi farmonida O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan ayollar respublikaning istalgan hududida tug'ishi mumkinligi va unga bepul akusherlik xizmati ko'rsatilishi (pullik muassasalar bundan mustasno) belgilangan⁸;

 Sog'lijni saqlash vazirligining 293/2019-soni buyrug'iida⁹ davlat tibbiyot tashkilotlarida davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy xizmatlar byudjet mablag'lari hisobidan ko'rsatilishi qayd etilgan. Kafolatlanmagan xizmatlar "tomonlarning o'zaro kelishuvi bo'yicha" pullik asosda taqdim etiladi. Agar bemor/mijoz tibbiy tashkilotga tibbiy yordam ko'rsatish uchun yo'llanmasiz kelgan bo'lsa, shoshilinch tibbiy yordam talab qilinmasa, ushbu yordam pullik asosda ko'rsatiladi;

 293-soni buyruqning 3-ilovasida umumiyo to'lovlar olinishi mumkin bo'lgan xizmatlar turlari (ya'ni har qanday bemorga sog'lomlashtirish bar, mehmonxona xizmatlarini ko'rsatish, tug'ruqdagi ayolga qo'shimcha xizmatlar, matbaa xizmatlari, sartaroshlik xizmatlari) va boshqalar ko'rsatilgan. Tibbiyot muassasasi hududida tijorat tuzilmalarini (dorixona, do'kon, maishiy xizmatlar) va ayrim xususiy diagnostika xizmatlarini tashkil etishga ruxsat berilgan (4-bob);

 Buyruqning 4-bobi 26-bandiga binoan¹⁰ tibbiyot muassasasi rahbari pullik xizmatlar turlarini va ularning narxlарini vazirlik ruxsati bilan mustaqil ravishda belgilaydi. Bu yerda pullik xizmatlar deganda, odatda davlat tomonidan kafolatlangan, biroq yo'llanmasi bo'limgan bemor foydalanayotgan shoshilinch bo'limgan xizmatlar va davlat tomonidan kafolatlangan xizmatlardan tashqari xizmatlar tushuniladi. Xizmatlar ro'yxati va ularning narxlari haqida ma'lumot ochiq bo'lishi kerak (shu jumladan onlayn) va faqat tayinlangan xodim

⁸ 1-ilova, Farmon, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 10 noyabrdagi 2107-soni qarori.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirligining 2019-yil 12-martdaggi "Vazirlik tizimida tibbiyot tashkilotlaridan pullik xizmatlar ko'rsatishni tashkil etish tartibi to'g'risida"gi 293-soni buyrug'i.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirligining 293-soni "Pullik tibbiy yordamga bosqichma-bosqich o'tayotgan tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish tartibi" 4-bo'limi 26-band, sog'lijni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari.(O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 10 noyabrdagi 2107-soni Farmoniga 10-ilova)

(masalan, g'aznachi) naqd to'lovlarni qabul qilishi mumkin. Pullik xizmatlar uchun alohida hisob yuritilishi, hisobdorlik bo'lishi kerak;

- ◆ Buyruqning 3-ilovasida tez va shoshilinch tibbiy yordamga muhtoj yoki yo'llanmasi bo'lgan bemorlardan bunday xizmatlar uchun haq olinmasligi ko'rsatilgan;

Sog'liqni saqlash vazirligining 187-sonli buyrug'iда qayd etilishicha, agar bemorni davolash uchun zarur bo'lgan dori yoki reagent yetishmayotgan bo'lsa, shifokor dorilarni keltirish uchun tug'ruqdagi ayolning qarindoshini yuborishi mumkin, albatta, agar bu bemorning kasallik tarixida belgilangan bo'lsa.



IV. XALQARO HAMKORLIK VA YORDAM¹¹

O'zbekiston xalqaro tashkilotlar, boshqa davlatlar hukumatlari va xayriya jamg'armalaridan ham moliyaviy ko'mak olishi mumkin. Ushbu mablag'lар

infratuzilmani rivojlantirish, tibbiy yordam sifatini oshirish, tibbiyot xodimlarini tayyorlash va boshqa tibbiy loyihalarga yo'naltirilishi mumkin.

TIBBIYOT XODIMLARINING MEHNATIGA HAQ TO'LASH

1-jadvalda tibbiyot xodimlarining ish haqi ko'rsatilgan.

1-jadval: Davlat tug'ruqxonalaridagi tibbiyot xodimlarining ish haqi

Mutaxassisligi	Reyting/toifa	Pul ekvivalenti	Zarar uchun qo'shimcha to'lov	Tajriba uchun qo'shimcha to'lov
Akusher-ginekolog	6-o'rin	2 916 417	15%	5 yil - 5%
	7/2 toifasi	3 208 296	15%	10 yil -10%
	8/1 toifa	3 718 239	15%	15 yil - 15%
	9 / oliy toifa	4 127 109	15%	20 yil - 20%
Anesteziolog	7-o'rin	3 208 296	15%	5 yil - 5%
	8/2 toifa	3 718 239	15%	10 yil -10%
	9/1 toifa	4 127 109	15%	15 yil - 15%
	10 / oliy toifa	4 581 822	15%	20 yil - 20%

¹¹ O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi 684-sон "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni.

Hamshira	2-darajali	1 992 134	15%	5 yil – 5%
	3/2 toifasi	2 191 466	15%	10 yil – 10%
	4/1 toifasi	2 409 782	15%	15 yil – 15%
	5 / oliy toifa	2,767,926	15%	20 yil – 20%

Eslatma: O'nta toifa bor. Xodimlarning har bir toifasi ma'lum bir darajaga kiradi (masalan, 2-darajali hamshiralar) va ma'lum bir darajaga yetishi mumkin (masalan, hamshiralar uchun 5-darajali). "Toifa" oylik maoshni belgilovchi omil sifatida ish stajiga qarab belgilanadi.

Oliy toifali va 20 yillik tajribaga ega akusher-ginekolog (shifokor) bir oydag'i normativ ish soati (144)dan kelib chiqib, $127\ 109 + 619\ 066 + 825\ 421 = 5\ 571\ 596$ so'm maosh oladi, bu 450 AQSh dollarini tashkil qiladi.

20 yillik ish tajribasiga ega (5-toifali) hamshiralar oyiga 3 736 699 so'm (\$300) maosh oladi.

Shifokorlar, shuningdek, katta xarajatlarga duch keladi. Masalan, majburiy malaka oshirish va respublikada yoki xorijda o'tkaziladigan anjumanlar, uchrashuvlarga borish.

Shifokorlarning maoshlari boshqa davlat xizmatchilari va xususiy sektor xodimlariga nisbatan past. Masalan, sudyalar 2 000 dollar, bank xodimlari 900 dollar, leytenantlar 570 dollar maosh oladi (soliqsiz). Xususiy klinikalardagi shifokorlarning maoshlari ancha yuqori: 450 dollardan 4 000 dollargacha.

Xalqaro miqyosda shifokorlarning maoshi Rossiyada yuqori, Qozog'istonda ikki baravar ko'p, lekin Qirg'izistonda past, Tojikistonda ham ancha past (2-jadvalga qarang).

2-jadval: Alovida mamlakatlarda shifokorlarning daromadlari

No.	Mamlakat	Shifokorlarning daromadi \$ (2023)
1	Daniya	12,000
2	Sloveniya	4500
3	Qozog'iston	923
4	Rossiya	663
5	O'zbekiston	450
6	Qirg'iziston	400
7	Tojikiston	140

Ushbu tadqiqot davomida o'tkazilgan so'rovlarda tibbiyot xodimlari oylik maoshi o'z ehtiyojlarini (oziq-ovqat, kiyim-kechak

kabi) qoplash uchun yetarli emasligini ta'kidlagan. (3-jadvalga qarang)

3-jadval: Tibbiyot xodimlarining oylik maoshiga munosabati

Mutaxassis	Oylik maosh ehtiyojlaringizni qondiradimi?	Oylik maosh kasbiy rivojlanish uchun xarajatlaringizni qoplay oladimi?
Terapevt	Har doim emas – 53,8% Yo'q – 46,8%	Ha – 41% Yo'q – 59%
Neonatolog	Ha – 8,3% Har doim emas – 47,9% Yo'q – 43,8%	Ha – 35,4% Yo'q – 64,6%
Anesteziolog-reanimatolog	Ha – 19% Har doim emas – 35,7% Yo'q – 45,2%	Ha – 40,5% Yo'q – 59,5%
Akusher-ginekolog	Ha – 12,5% Har doim emas – 26,4% Yo'q – 61,2%	Ha – 29,1% Yo'q – 70,9%
Hamshira	Ha – 8,2% Har doim emas – 34,4% Yo'q – 57,4%	Ha – 47,5% Yo'q – 52,5%
O'rtacha	Ha – 9,6% Har doim emas – 39,64% Yo'q – 50,88%	Ha – 38,7% Yo'q – 61,3%

So'rovda qatnashgan akusher xodimlarning o'rtacha 51 foizi olayotgan maoshi kundalik ehtiyojlarini qoplamasligini bildirdi. Bundan tashqari, tibbiyot xodimlarining o'rtacha 61 foizi oylik maoshi kasbiy rivojlanish (treninglar, konferensiyalarda ishtirok) xarajatlari uchun yetarli emas, deb hisoblaydi.

Ta'kidlash kerak, maosh kamligi korrupsiya xavfining dastlabki omilidir, chunki bu xodimning kompensatsiya sifatida qo'shimcha pul olishiga yo'l ochadi. Shuningdek, fokus-guruh muhokamalarida shifokor va hamshiralalar farmatsevtika kompaniyalari bilan hamkorlikdan olinadigan bonuslar ularning daromadlarini sezilarli darajada oshirishini ta'kidladi (shifokorlarning 24 foizi va hamshiralarning 20 foizi).

Shifokorlarning malaka oshirish masalasi ham bor, ya'ni ular 288 soatlilik (2 oy) dars soatlarini o'qishi kerak. Bir oylik o'qish (144 soat) byudjetdan qoplanadi, ikkinchi oyni esa (144 soat) o'zлari qoplashi kerak (taxminan 200 AQSh dollari, shuningdek, turar joy, transport va boshqa xarajatlar oylik maosh niqdoridan oshib ketadi).

Garchi moliyalashtirish va rag'batlantirish tizimini isloh qilish, ish haqi ishlab chiqarish va ehtiyojlarga uzviy bog'lab qo'yilishi rejalashtirilayotgan bo'lsa-da, maoshlarni oshirish bo'yicha rasmiy siyosat mavjud emas. 2023-yil boshida sobiq sog'iqliqi saqlash vaziri Amrillo Inoyatov tibbiyot xodimlarining maoshini birdaniga oshirib bo'lmasligini, lekin bemorlarni davolaganda ular "minnatdorlik" sifatida pul berishi mumkinligini aytdi.¹²

Bundan tashqari, tibbiyot xodimlarining ish yuklamasi ham ortib bormoqda. Ko'plab shifokor va hamshiralar to'liq standart soatda ishga olinadi (va ko'pincha ish soati oshib ketadi), lekin ish vaqtining yarmi yoki choragi uchun haq to'lanadi. Fokus-guruh muhokamalarida tibbiyot xodimlari ortiqcha ish yuklamasi eng katta muammolardan biri ekanini bir necha marta ta'kidladi.

TIBBIYOT XODIMLARI MEHNAT SHAROITINING SIFATSIZLIGI KORRUPSIYA VA NOHALOLLIK XAVFI OMILLARI SIFATIDA

Shifokorlar va tibbiyot xodimlari:

2-o'rin

Ish hajmining yetarli emasligi, xodimlarning yetishmasligi, qoshimcha ish haqi to'lanmasligi

1-o'rin

Kam ish haqi

3-o'rin

Qonunchilikda shifokorlar to'liq himoyalanmaganligi

Tartibga solinmagan, ortiqcha ish yuklamasi

stress, samarasiz tibbiy xizmatlari

bemorlarning noroziligi, kelishmovchiligi

bemorlarni davolash jarayonida teng ko'rilmashigi

turli shakkarda norasmiy mukofotlarni qabul qilish, ishora qilish va ularni undirishga bo'lgan harakatlarga olib keladi

Xulosa:

Tibbiyot xodimlari mehnat sharoitining sifatsizligi yoki hayot sifatiga ta'sir qiluvchi har qanday yetishmovchilik kompensatsion korruptsiya va nohalol xatti-harakatlarga olib keladigan xavf omiliga aylanishi mumkin.

¹² <https://www.youtube.com/shorts/39KShZ-xJhQ>

DAVOLASH STANDARTLARI

Tibbiyot sohasidagi standartlar tizimi aholiga xolis tibbiy yordam ko'rsatishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunga kasalliklarga tashxis qo'yish, davolash va reabilitatsiya qilish bo'yicha tartib va standartlar kiradi. Tibbiyot standartlari tizimi quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

-  **Tashxis va davolash protokollari:** bunda turli kasalliklarga tashxis qo'yish va davolash usullari uchun standartlar belgilanadi. Ushbu protokollar majburiy tashxis qo'yish usullari, manipulyatsiyalar va invaziv/noinvaziv aralashuvlar turlarini o'z ichiga olishi mumkin.
-  **Dori bilan davolash standartlari:** bunda turli kasalliklarni dori vositalari bilan davolashning standart sxemalari belgilanadi. Standartlarga maxsus preparatlar, ularning dozalari, dozalash rejimi va davolashning davomiyligi kiritiladi.
-  Boshqa standartlarga esa profilaktika, o'qitish, sertifikatlash, monitoring, sifatni baholash va raqamli tibbiyot kiradi.

O'zbekistondagi akusherlik tizimida barcha bo'limlar uchun kompleks standartlar ishlab chiqilgan bo'lib, hamma uchun ochiqdir, shu jumladan, Sog'liqni saqlash vazirligining web-saytiga ham joylashtirilgan.

Tadqiqot doirasida o'tkazilgan so'rovlarda akusherlik tizimida ishlayotgan tibbiyot xodimlari quyidagilarni ta'kidladi:

-  Standartlar aniq va tushunarli tarzda bayon etilgan – 97 foiz respondent (4-jadvalga qarang);
-  Standartlar bilan tibbiyot xodimlarini, asosan, bosh shifokor o'rinosbasari xabardor qiladi, bu odatda, ertalabki "besh daqiqalik yig'ilishda" aytiladi (5-jadvalga qarang). Standartlar matni to'liq vazirlik saytiga joylashtirilgan bo'lsa-da, uni kamdan-kam xodim o'qib chiqadi. Shu bois xodimlar standartlar bilan qanchalik tanish ekanligi borasida savollar tug'iladi;
-  Tibbiyot xodimlarining aksari standartlarga muvofiq davolaydi (6-jadvalga qarang). Respondentlarning 94 foizi standartlar bo'yicha xizmat ko'rsatayotganini, 6 foizi esa davlat tomonidan kafolatlangan dori vositalarining yetarlicha ta'minlanmaganligi sababli, har doim ham bunday xizmat ko'rsata olmasligini bildirgan.

4-jadval: Standartlar bo'yicha tibbiyot xodimlarining fikri

Mutaxassislik	Ishda standartlarni qo'llash
Akusher-ginekologlar	Standartlar aniq va tushunarli tasvirlangan - 96,7% Materialni tushunish juda qiyin - 3,3%
Anesteziologlar	Standartlar aniq va tushunarli tasvirlangan - 90,5% Materialni tushunish juda qiyin - 9,5%
Terapevtlar	Standartlar aniq va tushunarli tasvirlangan - 79,5% Materialni tushunish juda qiyin - 20,5%
Neonatologlar	Standartlar aniq va tushunarli tasvirlangan - 91,7% Materialni tushunish juda qiyin - 8,3%
Hamshiralalar	Standartlar aniq va tushunarli tasvirlangan - 96,7% Materialni tushunish juda qiyin - 3,3%

5-jadval: Standartlar bilan tanishish manbalari bo'yicha tibbiyot xodimlarining fikri

Tibbiyot xodimlari toifasi	Standartlar bo'yicha ma'lumot manbalari						
	Jurnallar	Bosh shifokorning davolash ishlari bo'yicha o'rinnbosari	Hamkasblar	"Besh daqiqalik yig'ilish"lar (пятими- нутка)	Ijtimoiy tarmoqlar	Farm- kompani- yalar	Sog'liqni saqlash vazirligining sayti
Akusher- ginekologlar	16.6%	73.6%	20.8%	45.9%	25%	1.4%	0%
Anesteziologlar	28.6%	71.4%	45.2%	69%	42.95	0%	2.4%
Terapevtlar	20.5%	66.7%	51.3%	69.2%	43.6%	0%	2.6%
Neonatologlar	10.4%	62.5%	29.2%	54.2%	27.1%	0%	2.1%
Hamshiralalar	13.1%	70.5%	34%	50.8%	24.6%	1.6%	1.6%

6-jadval: Standartlarga riosa qilinishi bo'yicha tibbiyot xodimlarining fikri

Mutaxassislik	Ishda standartlarni qo'llash
Akusher-ginekologlar	Men standartlarga muvofiq xizmatlar ko'ssataman - 94,4% Men standartlar bo'yicha xizmatlar ko'ssata olmayman - 5,6%
Anesteziologlar	Men standartlarga muvofiq xizmatlar ko'ssataman - 100%
Terapevtlar	Men standartlarga muvofiq xizmatlar ko'ssataman - 94,9% Men standartlar bo'yicha xizmatlar ko'ssata olmayman - 5,1%
Neonatologlar	Men standartlarga muvofiq xizmatlar ko'ssataman - 97,9% Men standartlar bo'yicha xizmatlar ko'ssata olmayman - 2,1%
Hamshiralari	Men standartlarga muvofiq xizmatlar ko'ssataman - 100%

Ehtimol, resurslarning cheklanganligi tufayli belgilangan standartlarga riosa qilishning qiyinchiliklari tufayli standartlarning bajarilishini monitoring qilish vazirlik tomonidan faqat o'lim holatlari, qarindoshlarning shikoyatlari, tibbiyot xodimlari o'ttasida ichki tartib-qoidalar mavjud bo'lganda amalga oshiriladi. Muntazam monitoring yoki tekshirishning aniq tizimi mavjud emas.

Xulosa qilib aytganda, standartlar aniq belgilangan, biroq unga hamma joyda ham riosa qilinadi, tibbiyot xodimlari standartlar bilan doimiy ravishda to'liq tanishib boradi, deb aytish mushkul. Klinik davolash standartlariga to'la amal qilinishi korrupsiyaning oldini olishning muhim mexanizmi hisoblanadi, chunki bunda o'zboshimchalik bilan davolashga imkoniyat qolmaydi. Agar tibbiyot xodimlari standartlar bilan to'liq tanish bo'lmasa yoki bu bo'yicha to'g'ri o'qitilmasa, korrupsiya xavfining muhim omiliga aylanishi mumkin.

NAZORAT

Hukumatning 696-sonli qarorida "Tibbiyot tashkilotlarining rahbarlari yo'llanmalarning to'g'ri berilishi hamda tasdiqlangan tibbiy yordam sifati standartlariga hamda ushbu Nizom talablariga muvofiq tibbiy yordam ko'rsatilishi uchun javob beradi" deya belgilab qo'yilgan (19-modda).

Sog'iqlini saqlash vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, vazirlik har hafta tibbiyot muassasalarining standartlarga riosa qilishini nazorat qiladi. Biroq amalda nazorat faqat murojaatlar yoki boshqa xabarnomalar (jumladan, jinoiy shikoyatlar) bo'yicha amalga oshiriladi va boshqa tegishli organlar (masalan, prokuratura) tomonidan olib boriladi.

Shuningdek, vazirlik sayti va "Ishonch raqami" orqali murojaat qoldirish mumkin hamda vazirlikning korrupsiya qarshi kurashish bo'yicha komplayens bo'limida ham murojaatlar uchun telefon raqamlar e'lon qilingan.

2023-yilning 6 oyi davomida Korrupsiya qarshi kurashish agentligiga korrupsiya oidi huquqbazarliklar yuzasidan 9 ta murojaat kelib tushgan. Murojaatlarning 4 tasi tug'ruq komplekslaridagi ta'magirlik holatlariga tegishli.

2-BOB. AKUSHERLIK XIZMATLARINI KO'RSATISHDA BEMORLAR BILAN MUNOSABATLARDAGI MUAMMOLAR, ULARNING SABABLARI VA TAVSIYALAR

So'rovlar, intervylular va fokus-guruuhlar muhokamasida respondentlar akusherlikdagi xatti-harakatlarning bir qator muammolarini (xavflarini) bildirdi. Asosiyları quyidagilardan iborat bo'ldi:

- ❖ davlat tomonidan qonuniy kafolatlangan tug'ruq xizmatlari uchun haq olish: rasmiy ravishda alohida tug'ruq muassasalari tomonidan yoki tibbiyot xodimlariga norasmiy to'lovlar shaklida;
- ❖ bir tomonidan tibbiyot xodimlari va/ yoki sog'liqni saqlash muassasalari bilan xususiy dorixonalar va/ yoki farmatsevtika kompaniyalari o'rtaida bemorlarning ma'lum dori-darmonlarni sotib olishlarini ta'minlash uchun til biriktirish.

Navbatdagi bobda ushbu xavflar ko'rsatilgan, akusherlik xizmatining huquqiy va institutsional tuzilishidagi muammolar (xavf omillari), bu xavflarni keltirib chiqaradigan yoki ularga ko'maklashadigan omillar aniqlangan. Tavsiyalar bo'limida qisqa va o'rta muddatli istiqbolda korrupsiyani kamaytirish/ oldini olish uchun ko'riliishi mumkin bo'lgan chora-tadbirlarni ko'satadi. Tavsiyalarning ayrimlari mohiyatan Prezidentning 5590-sonli Farmonidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, ular to'g'ri amalga oshirilgan taqdirda tub ta'sir ko'rsatishi kerak. Qolgan tavsiyalar yaqin kelajakda halollik muammolarini hal qilishga qaratilgan boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat.

XAVFLAR


1. ASLIDA BEPUL BO'LGAN XIZMATLAR UCHUN RASMIY YOKI NORASMIY SHAKLDA PUL UNDIRISH AMALIYOTI MAVJUD. NORASMIY TO'LOVLAR MAVJUDLIGINI QUYIDAGILAR TASDIQLADI:

- ❖ hududiy sog'liqni saqlash tizimi vakillarining **71%**
- ❖ 1-2-darajali perinatal markazlar va tug'ruqxonalar bosh shifokorlarining **50 %**
- ❖ perinatal markazlar akusher-ginekologlarining **43,7 %**
- ❖ perinatal markazlar neonatologlarining **39,6 %**
- ❖ perinatal markazlar anesteziologlarining **31 %**
- ❖ perinatal markazlar terapevtlarining **15,4%**
- ❖ perinatal markazlar hamshiralarining **27,9 %**
- ❖ qarindoshlarning **63,1%**
- ❖ tug'ruqdagi ayollarning **10,4 %** norasmiy to'lovlar haqida ularga tibbiyot xodimlari ishora qilganini tasdiqladi.

So'rovlар shuni ko'rsatади, то'ловлarning асоси ташаббускорлari туг'ruqdagi айоллarning qarindoshларидir, ammo, buni hushyorlik bilan talqin qilish lozim, chunki agar xizmat ko'rsatish yoki ko'rsatilayotgan xizmat sifati to'lovni taqdim etishga bog'liq bo'lса, ayollar yoki qarindoshлar to'lov qilishga majbur bo'lislari mumkin.

Ta'kidlanishicha, Toshkentdagи tug'ruqxonalardan birida boshqa hududlardan yuborilgan bemorlардан to'lov olinadi va turli xil xarajatlar uchun preyskuratorlar mayjud bo'lib, tug'ruq kabi akusherlik xizmatlari narxi faqat bosh shifokorga ma'lum va tug'ruq uchun to'lov taxminan 40 dollarni tashkil qiladi.

XIZMATLAR UCHUN MUKOFOT BERISH TASHABBUSI QARINDOSHLAR TOMONIDAN BO'LADI




2. SHIFOKORLAR/RAHBARIYATNING XUSUSIY DORIXONALAR BILAN TIL BIRIKTIRIB, BEMORLARNI DORIXONALARGA YOKI FARMATSEVTIKA KOMPANIYALARI BILAN BEMORLARNI O'Z MAHSULOTLARINI SOTIB OLİSHGA YO'NALTIRISH TAJRIBASI:

-  Tibbiyot xodimlarining **69 %** dori-darmonlar yetishmagani sababli tug'ruqdagi айоллар qarindoshларини xususiy dorixonalarga yuborishларини ta'kidladi
-  **100%** qarindoshlarning aytishicha, agar dori yo'q bo'lса, shifokorlar ularga dori sotib olish uchun retsept yozadi.

TIBBIYOT MUASSASALARI MA'MURIYATINING FARMATSEVTIKA KOMPANIYALARI BILAN TIL BIRIKTIRISHNING MAVJUDLIGI:



TIBBIYOT MUASSASALARI XODIMLARINING FARMATSEVTIKA KOMPANIYALARI, XUSUSIY DORIXONALAR VA XUSUSIY DIAGNOSTIKA MARKAZLARI BILAN TIL BIRIKTIRISHI.



XAVF OMILLARI

01

Prezidentning 5590-sonli Farmonida belgilanganidek: "Me'yoriy-huquqiy baza noaniq yoki mujmal, soha huquqiy jihatdan to'liq tartibga solinmagan bo'lsa, qonunosti hujjatlar va idoraviy hujjatlar sezilarli darajada ustunlik qiladi". Huquqiy me'yorlarning umumiy xavfi, hujjatlar (masalan, vazirlik buyruqlari va shifoxona buyruqlari) bir-biriga mos kelmasligi yoki bir-biriga zid bo'lishidir. Bu esa noto'g'ri xatti-harakatlarga yo'l ochib beradi.

02

Moliyaviy tizim tibbiyot muassasalarini yetarli darajada yoki adolatli moliyalashtirishni ta'minlay olmaydi. Talabning ortishiga javoban muassasalar salohiyatini oshirish, barcha zarur xizmatlarni, xususan, ish haqini tegishlichka moliyalashtirishni ta'minlaydigan normativ mexanizmlar mavjud emas.

Prezidentning 5590-sonli Farmoniga ko'ra, "Majburiy tibbiy sug'urta tizimini joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratilmagan. Natijada hanuzgacha sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirish asosan budjet mablag'lari hisobidan amalga oshirilmoqda. Respublikada tibbiy xizmatlarining klinik tavsiyalari (bayonnomalari) va standartlari bilan uzviy bog'liq klinik-xarajat guruhlari (DRG tizimi) ishlab chiqilmagan".

03

Tug'ruqxona muassasalari ortiqcha yuklama bilan ishlaydi.

04

Tibbiyot xodimlarining maoshlari ularning asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli emas, deb hisoblanadi. Masalan, so'rovlarda shifokorlarning 61 foizi, hamshiralarning 57 foizi va anesteziologlarning 45 foizi ularning maoshi asosiy turmush ehtiyojlarini qoplamasligini aytgan.

05

Noto'g'ri professional tayyorgarlik. Prezidentning 5590-sonli Farmonida muammo sifatida quyidagi holatlar keltiriladi: "Tibbiyot kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlashning zamonaliv tizimlarini tatbiq etishdag'i sustkashlik va buning oqibatida shifokorlar hamda o'rta tibbiyot xodimlari kasbiy bilimlari darajasining yetarli emasligi ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda."

- 06** Tibbiyot xodimlarining axloq kodeksi 2022-yil mart oyida tasdiqlangan, lekin Internet tarmoqlarida mavjud emas va tibbiyot xodimlariga tarqatilmagan.
- 07** Shifokorlar va boshqa tibbiyot xodimlari diagnostika va davolash standartlari bo'yicha to'liq ma'lumotga ega emas/xabardor qilinmaydi.
- 08** Dori-darmon va buyumlar yetarli emas. Nizom (Sog'lijni saqlash vazirligining 187-sonli buyrug'i) shifokorlarga bemorlarni yetishmayotgan (shu jumladan, davlat bepul kafolatlashi kerak bo'lgan) dori-darmonlarni sotib olishga yuborishga ruxsat beradi. Tibbiyot muassasalari tijorat faoliyatini, shu jumladan, xususiy dorixonalarini tashkil etishi mumkin. Tibbiyot muassasalari dori-darmonlarni mustaqil ravishda sotib olishlari mumkin, bu esa rahbariyat va farmatsevtika kompaniyalari o'rtaida til biriktirish xavfini keltirib chiqaradi.
- 09** Bemorlarga o'z huquqlari to'g'risida to'liq yoki to'g'ri ma'lumot bermaslik: Sog'lijni saqlash vazirligining 696-sonli buyrug'ini bajarmaslik / ijro etmaslik, unga ko'ra, qabul bo'limlari "bemorlarga bepul, ochiq va ishonchli ma'lumotlarni, shu jumladan ish vaqtin, tibbiy xizmatlar ro'yxati, tibbiy yordam ko'rsatish, ushbu yordamni ko'rsatish va olish shartlari, shuningdek, tibbiyot mutaxassislarining malakasi va boshqalar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etishi kerak". (15-modda).
- 10** Norasmiy mukofotlarning keng qabul qilinishi: tug'ruqda ishtirok etgan tibbiyot xodimlariga "suyunchi" berish odati, ayniqsa, agar to'lov xizmat olinganidan keyin berilsa, xizmat ko'rsatish ma'lum darajada to'lovga bog'liq bo'lgan tarzda amalga oshiriladi.

TAVSIYALAR:



- 01** O'zbekiston Respublikasi sog'lijni saqlash tizimini 2019–2025-yillarda rivojlantirish konsepsiyasini (PF-5590, 1-ilova) hayotga tatbiq qilish, xususan:
- "Sog'lijni saqlash sohasidagi milliy qonunchilikni unifikatsiya qilish va to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etuvchi qonunlarni qabul qilish orqali me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish". Xususan, sog'lijni saqlash sohasidagi amaldagi qonunlar normalari, asosiy atama va ta'riflar va boshqalarni birlashtiruvchi O'zbekiston Respublikasining Sog'lijni saqlash kodeksini qabul qilish.
- "O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplanadigan bepul tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlari to'g'risida"gi Hukumat qarori bilan davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy yordam ko'rsatish hajmini belgilash, shu jumladan, tibbiy yordam ko'rsatish hajmini belgilashning usul va mexanizmlarini nazarda tutish, byudjet mablag'larini rejalashtirish va operativ boshqarish tuzilmasi.
- "...klinik xarajatlar guruhlari va aholi jon boshiga moliyalashtirishning yangi mexanizmlariga mos ravishda "davolangan holatbay" tamoyili bo'yicha tibbiy xizmatlarga haq to'lash tizimini joriy etish..."
- "...majburiy tibbiy sug'urtani bosqichma-bosqich joriy etish", xususan, "Majburiy tibbiy sug'urta to'g'risida"gi qonunni qabul qilish. Bu sug'urta jamg'armasining haqiqiy rezidentlar va boshqa yuridik shaxslarning badallarini o'z ichiga olgan sug'urta fondi bo'lishini ta'minlashi kerak, uning miqdori qonuniy ravishda belgilanadi va to'lovchilarga tizim funksiyalarini talab qilish uchun muayyan moliyaviy rag'bat beradi.

"Tibbiyot xodimlarining kasbiy majburiyatlarini bajarishini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish, manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaning oldini olish...". Tibbiyot xodimlarining axloq kodeksi buzilishi holatlariga mutanosib jazo choralarini belgilash uchun, zarurat tug'ilganda, o'zgartishlar kiritilishi kerak. Kodeks ma'lumotlarini tibbiyot xodimlari orasida ham, aholi orasida ham keng tarqatish (masalan, barcha tibbiyot muassasalarida), tibbiyot xodimlarini o'qitish va mavjud murojaat mexanizmlari orqali huquqbazarliklar to'g'risida xabardor qilishni rag'batlantirish uchun jamoatchilik xabardorligini oshirish kerak.

Kodeks yoki boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda manfaatlar to'qnashuvi, shu jumladan farmasevtika kompaniyalari bilan munosabatlar (masalan, ziyofatlar, ilmiy darajalar uchun to'lovlar) va boshqa moliyaviy manfaatlar to'g'risidagi aniq qoidalar belgilanishi kerak.

02

Sog'lijni saqlash vazirligi akusherlik xizmatlarini ko'rsatuvchi barcha tibbiyot muassasalarini quyidagilarni ta'minlash maqsadida tekshirish/nazorat amalga oshirish:

- ❖ Vazirlik buyruqlari va shifoxona buyruqlari/qoidalari Sog'lijni saqlash vazirligining 293/2019-soni buyrug'ida belgilangan hollarda davlat tomonidan kafolatlangan akusherlik xizmatlarini bepul ko'rsatishni kafolatlaydi.
- ❖ Qabul bo'limlari bemorlarga ularning huquqlari bo'yicha standartlashtirilgan shaklda (masalan, vazirlik tomonidan tayyorlangan plakat) har tomonlama va aniq ma'lumot beradi.

03

Boshqa kasblar bilan solishtirganda adolatli ish haqi stavkalarini aniqlash va amalga oshirish uchun tibbiyot xodimlarining ish haqini qayta ko'rib chiqish.

04

Sog'lijni saqlash vazirligining 187-soni buyrug'inining shifokorlarga bemorlarni davlat tomonidan kafolatlangan dori vositalari va buyumlarni sotib olishga yuborishga ruxsat beruvchi bandini bekor qilish.

05

Farmasevtika kompaniyalari va diagnostika markazlari shifokorlarning o'qishiga yordam berishni yoki to'liq qoplashni joriy qilish.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH AGENTLIGINING TAVSIYALARI:

01

Respublika bo'ylab tug'ruqxonalarda, tug'ruq markazlarida va perinatal markazlarda umumiy foydalanish uchun pullik xizmatlar, shu jumladan tug'ruq uchun shifokor xizmatlari uchun narxlar ro'yxatini joylashtirish;

02

Tug'ruq tizimida korrupsiyaviy huquqbazarliklarni aniqlash va oldini olish maqsadida homilador ayollar, tug'ruqdagi ayollar va aholi o'rtaida turli shakllarda so'rovlanri keng va muntazam tashkil etish, to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish va tegishli choralarini ko'rish;

03

Tug'ruq tizimida tibbiyot xodimlari va tug'ruqdagi ayollarining qarindoshlari bilan vositasiz munosabatga kirishish (ya'ni video/telefon aloqasi, qabulga yozilish orqali) usullarini ishlab chiqish va joriy etish;

04

Tibbiyot xodimlari vakolatlarini suiste'mol qilishining oldini olish maqsadida bemorlar va ularning qarindoshlari bilan munosabatga kirishishning standart modellarini ishlab chiqish va joriy etish.

ILOVA

DAVLAT IDORALARINING SHAFFOFLIGI VA TEZKORLIGI BO'YICHA "YUKSALISH" HARAKATI TOMONIDAN 2021-2023-YILLARDA O'TKAZILGAN TADQIQOT

Nº	Davlat idorasi	Normativ-huquqiy bazaning topilishi	Rasmiy xat raqami
1.	O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi	Ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlarni qisman topish mumkin: PDF kompyuterda o'qilmaydi, kompyuter qidiruvি orqali topilmaydi. Ichki buyruqlar keng jamoatchilikka oshkor qilinmagan	24.07.2023dan 03-07/3469-sonli
2.	O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi	Ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlarni qisman topish mumkin: PDF kompyuterda o'qilmaydi, kompyuter qidiruvি orqali topilmaydi. Ichki buyruqlar keng jamoatchilikka oshkor qilinmagan	06.06.2023dan 335/23-sonli
3.	Toshkent shahar hokimligi, viloyatlar hokimliklari	Ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlarni qisman topish mumkin: PDF kompyuterda o'qilmaydi, kompyuter qidiruvি orqali topilmaydi. Ichki buyruqlar keng jamoatchilikka oshkor qilinmagan	22.03.2023dan 03-07/2485-sonli
4.	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (sobiq Maktabgacha ta'lim vazirligi, 2022-yilgi Ma'muriy islohotdan so'ng Xalq ta'limi vazirligi bilan birlashtiridi)	Ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlarni toppish qiyin, kompyuterda o'qiladigan emas /bo'sh hujjatlar	24.07.2023dan 03-09/3475-sonli
5.	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi	Ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlarni qisman topish mumkin: PDF kompyuterda o'qilmaydi, kompyuter qidiruvি orqali topilmaydi	18.08.2022dan 03-07/3680-sonli
6.	O'zbekiston Respublikasi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi (2022-yilda Ma'muriy islohot natijasida tugatilgan)	Ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlarni qisman topish mumkin: PDF kompyuterda o'qilmaydi, kompyuter qidiruvি orqali topilmaydi.	28.03.2022dan 03-07/1241-sonli
7.	O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (sobiq Xalq ta'limi vazirligi)	Ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlarni qisman topish mumkin: PDF kompyuterda o'qilmaydi, kompyuter qidiruvি orqali topilmaydi.	08.06.2022dan 705/22-sonli
			28.03.2022dan 03-07/1964-sonli
			28.03.2022dan 03-07/1242-sonli
			24.03.2021dan 01-09/2130-sonli

Murojaat mavzusi	Izoh	So'rangan ma'lumotlarni taqdim etishga tayyorlik	Qo'llab- quvvatlash dan qoniqish
Ijtimoiy so'rovda yordam so'rangan va biriktirilgan xodimlar haqida murojaat	O'z vaqtida	Past	Yaxshi
Savollarga javoblar	Katta kechikish bilan, 30 tadan 2 ta savolga javob berildi		
Ma'lumot so'rangan murojaat	O'z vaqtida	Yaxshi	Yaxshi
Ijtimoiy so'rovda yordam so'rangan murojaat	O'z vaqtida		
Ijtimoiy so'rovda yordam so'rangan murojaat	O'z vaqtida	Yaxshi	Yaxshi
Ijtimoiy so'rovda yordam so'rangan murojaat	O'z vaqtida	Past	Past
Ma'lumot va hududlarda ijtimoiy so'rovda yordam so'rangan qo'shimcha murojaat	Kechikish bilan berildi, to'liq hajmda emas. Rasmiy javob Korruksiyaga qarshi kurashish agentligi aralashganidan keyin bir oy ichida berildi		
Ma'lumot so'rangan murojaat	O'z vaqtida, javob yetarlichcha bo'lмаган, jamoatchilik muhokamasida ishtirok etilmagan	Past	Past
Ijtimoiy so'rovda yordam so'rangan va biriktirilgan xodimlar haqida murojaat	O'z vaqtida, yetarlichcha emas. Mutaxassis biriktirildi, lekin u hech qanday ma'lumot bermadi va jamoatchilik muhokamasida qatnashmadi	Past	Salbiy
Ijtimoiy so'rovda yordam so'rangan murojaat	O'z vaqtida	Yaxshi	Yaxshi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 01** Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali <https://my.gov.uz/ru/service/organisation-services?id=9>
- 02** Respublika perinatal markazi <https://perinatal-center.uz/>
- 03** Respublika ixtisoslashtirilgan Ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi <https://www.akusherstvo.uz/>
- 04** "Fuqarolar uchun byudjet. 2021-yilda sog'lijni saqlashga davlat xarajatlari". Hisobot. BMT Taraqqiyot dasturi tomonidan tayyorlangan
- 05** "O'zbekistonda sog'lijni saqlash tizimining transformatsiyasi, uni amalga oshirishning ikki yillik tahlili". Hisobot. JSST tomonidan 2023-yilda tayyorlangan
- 06** "Onalar hayotini saqlab qolish uchun ayollar salomatligini va tibbiy xizmatni yaxshilash". Hisobot. 2022-yil
- 07** "Davlat xarajatlari tahlili". Hisobot. Juhon banki tomonidan 2022-yilda tayyorlangan
- 08** "O'zbekiston sog'lijni saqlash sohasining umumiyo ko'rinishi". Hisobot. RB ASIA konsalting guruhi tomonidan 2019-yilda tayyorlangan
- 09** Sog'lijni saqlash vazirligining 18.09.2021-yildagi "Ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy davolash markazlari faoliyatining shaffofligi va ochiqligi to'g'risida"gi 230-ton buyrug'i
- 10** Sog'lijni saqlash vazirligining 28.06.2021-yildagi "O'zbekiston Respublikasida perinatal tibbiy yordamning manzilli yo'nalishi to'g'risida"gi 151-ton buyrug'i
- 11** Sog'lijni saqlash vazirligining 28.05.2014-yildagi "Perinatal yordamni mahalliylashtirish to'g'risida"gi 185-ton buyrug'i
- 12** Sog'lijni saqlash vazirligining 03.12.2019-yildagi "Pullik xizmatlar ko'rsatish to'g'risida"gi 293-ton buyrug'i
- 13** Sog'lijni saqlash vazirligining 20.03.2020-yildagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 76-ton buyrug'i
- 14** Sog'lijni saqlash vazirligining 30.11.2021-yildagi "Akusherlik va ginekologiyada klinik protokollar, davolash standartlari to'g'risida"gi 273-ton buyrug'i
- 15** Sog'lijni saqlash vazirligining 09.11.2020-yildagi "Korrupsiyaga qarshi kurashishni takomillashtirish to'g'risida"gi 288-ton buyrug'i
- 16** Sog'lijni saqlash vazirligining 04.10.2022-yildagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va O'zbekiston Adliya vazirligining "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, unitar korxonalar va muassasalar faoliyatida korrupsiya xavfini aniqlash, baholash va oldini olish metodikasini tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'ini bajarish to'g'risida"gi 275-ton buyrug'i
- 17** Sog'lijni saqlash vazirligining 2017.11.04-yildagi "Pullik xizmatlar ko'rsatish narxlari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 150-ton buyrug'i
- 18** Sog'lijni saqlash vazirligining 11.06.2018-yildagi "Ayollar, bolalar va o'smirlarga samarali akusherlik-ginekologik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi 386-ton buyrug'i
- 19** Sog'lijni saqlash vazirligining 20.12.2007-yildagi "Sog'lijni saqlash muassasalari nomenklaturasini tasdiqlash to'g'risida"gi 566-ton buyrug'i

- 20** 29.12.2018-yildagi videoselektor yig'ilishi bayoni, "Poraxo'rlikning oldini olish, odob-axloq va deontologiyaga rioxalish, korrupsiyaga qarshi kurashish, akusherlik tizimida ma'naviyatni yuksaltirish masalalari" yig'ilishi kun tartibi
- 21** "Fuqarolarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun. 28.02.2019-yil. O'RQ-528
- 22** "Fuqarolar salomatligini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun. 20.05.2010-yil. O'RQ-246
- 23** "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun. 03.01.2017-yil. O'RQ-419
- 24** Prezidentning 08.09.2023-yildagi "2023-2028-yillarda onalik va bolalikni muhofaza qilishni kuchaytirish to'g'risida"gi 296-son qarori
- 25** Prezidentning 07.12.2018-yildagi "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi 5590-son qarori
- 26** Prezidentning 08.11.2019-yildagi "Reproduktiv yoshdagi ayollar, homilador ayollar va bolalarga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini oshirish va qamrovini yanada kengaytirish to'g'risida"gi 4513-son qarori
- 27** Prezidentning 25.04.2022-yildagi "2022-2026-yillarda onalik va bolalikni muhofaza qilishni kuchaytirish to'g'risida"gi 216-son qarori
- 28** Vazirlar Mahkamasining 27.10.2014-yildagi "Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 22-iyuldag'i "Respublika qishloq joylarida onalar va bolalarning reproduktiv salomatligini mustahkamlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 156-son qaroriga o'zgartishlar kiritish haqida"gi 297-son qarori
- 29** Vazirlar Mahkamasining 28.07.2011-yildagi Germaniya Federativ Respublikasi hukumati bilan moliyaviy hamkorlikda "Sog'liqni saqlash dasturi, "Reproduktiv salomatlik/ona va bola salomatligi" komponentini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 219-son qarori
- 30** Vazirlar Mahkamasining 25.08.2003-yildagi "Nikohga kiruvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 365-son qarori
- 31** Vazirlar Mahkamasining 10.05.2018-yildagi "Reproduktiv yoshdagi ayollar va qizlarga akusherlik, ginekologik va tibbiy yordam ko'rsatishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 352-son qarori
- 32** Vazirlar Mahkamasining 05.09.2017-yildagi "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi tibbiyot tashkilotlarida O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan tibbiy yordam ko'rsatish tartibi to'g'risida"gi 696-son qaroriga Nizom
- 33** "Normal tug'ruq (bir homilali tug'ruq, oksipital ko'rinishdagi spontan tug'ruq)" davolash standartlari
- 34** "Kesarcha kesish yo'li bilan tug'ruq" davolash standartlari

